

**Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish  
dasturining mohiyati. Dasturning konsentrik tamoyili asosida tuzilishi**

***Ikramova Dono Ulug‘bek qizi***

*Аннотация. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturining mazmun mohiyati, dasturning konsentrik tamoyili asosida tuzilishi, bolalarni kuzatish usullariga o‘rgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosa va umumlashmalar chiqarish kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekskursiyalar o‘tkazishga, tabiat ashyolari va voqelikni tabiiy holatda o‘rganishga katta e’tibor berish kerakligi, ekskursiyalar davomida yig‘ilgan ko‘rgazmali materiallardan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ham keng foydalanish mumkin ekanligi, shuning uchun ham tabiat bilan tanishtirish va ekologiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishga alohida e’tibor berish zarurligi va shu orqaligina maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga bo‘lgan qiziqish va e’tiborini oshirish mumkinligi yoritib berilgan.*

*Аннотация. В данной статье указывается на содержательный характер программы ознакомления дошкольников с природой, структурирование программы по концентрическому принципу, обучение детей методам наблюдений, фиксация их результатов в дневниковой тетради, на основании которых следует делать выводы и обобщения. В дошкольных образовательных организациях необходимо уделять большое внимание проведению экскурсий, изучению предметов природы и действительности в их естественном состоянии, подчеркивается, что наглядный материал, собранный во время экскурсий, может широко использоваться и в групповых занятиях, поэтому необходимо уделять особое внимание приобщению к природе и проведению экологических занятий, и только через это можно повысить интерес и внимание дошкольников к природе. дано.*

**Abstract.** *This article shows the essence of the program for introducing preschool children to nature, its structure on the basis of the concentric principle of the program, teaching children to observation methods, setting their results in a diary, drawing conclusions and generalizations based on them. It is highlighted that it is necessary to pay great attention to conducting excursions in preschool educational organizations, to study nature objects and reality in a natural state, that visual materials collected during excursions can also be widely used in group activities, therefore, it is necessary to familiarize yourself with nature and pay special attention to conducting ecology classes, and only thanks to this*

**Kalit soʻzlar:** *Tabiatshunoslik, kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar, tabiat ashyolari, koʻrgazmali materiallar, ekologik muammolar, "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik", Tabiat va jamiyat, mashgʻulot, oʻyin, bolalar ekologik madaniyati.*

**Ключевые слова:** *Естествознание, наблюдения, экскурсии, опыты, практические работы, предметы природы, наглядный материал, экологические проблемы, "окружающий мир", "естествознание", природа и общество, занятия, игры, детская экологическая культура.*

**Keywords:** *Natural science, observation, excursion, experience, practical work, nature objects, visual materials, environmental problems, "the world around us", "Natural Science", Nature and society, training, play, children's ecological culture.*

Tabiatshunoslik fanini oʻrganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar yetakchi oʻrin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga oʻrgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosa va umumlashmalar chiqarish davom ettiriladi. Ekskursiyalar oʻtkazishga, tabiat ashyolari va voqelikni tabiiy holatda oʻrganishga katta eʼtibor beriladi. Ekskursiya davomida yigʻilgan koʻrgazmali materiallardan guruhlarda oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda ham foydalanish mumkin. Shuning uchun ham bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashgʻulotlarini oʻtkazishga alohida eʼtibor berish zarur. Tabiatni asrab-avaylash

mavzusini o'rganishda tarbiyalanuvchilar respublikamiz ekologik muammolari va tabiatni asrash ishlari bilan tanishadilar. Tarbiyalanuvchilarning boshqa mashg'ulotlarda atrof olam to'g'risida olgan tasavvurlari tabiatshunoslik mashg'ulotlarida kengaytirilib, boyitiladi. "Atrofimizdagi olam" hamda "Tabiatshunoslik" mashg'ulotlari davomida bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirib olishlariga alohida e'tibor berish zarur. Tarbiyachi bolalarga o'z o'rtoqlari bilan qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatishi kerak. Shunga ko'ra pedagoglar bolalarga faqat u yoki bu qoidaning mazmuni haqida hikoya qilibgina qolmasdan, balki uni qanday bajarish kerakligini ham ko'rsatishadi. Odamlarning har xil harakatlari (ish yuritishlari), ularning o'zaro munosabatlari ko'rsatilgan she'r va hikoyalarni sahnalashtirish xulq-atvor qoidalarini namoyish qilishning samarali uslubidir. Ko'pgina o'yin va mashg'ulotlar tabiatni idrok qilib olishga, unga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Ular bolalarni tabiat hodisalari to'g'risidagi bilimlar bilan boyitishi, ularning insonparvarlik va estetik xislatlarini rivojlantirishi kerak.

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza [matnlari](#), elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi. Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan

ekologik vaziyat ta'lim - tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

1. Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponentlarini yaxlitlikda va o'zaro aloqadaligini his etish;
2. Tabiatning bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;
3. Atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;
4. Tabiat talabaning ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;
5. Atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;
6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;
7. Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar. Shular asosida talabaning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyligi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;

tabiatda sodir boʻladigan turli xildagi fojealarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid taʼlim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy gʻoyalarni oydinlashtira olish, ulardan taʼlim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;

tabiatga qadriyat sifatida qarash tuygʻusini uygʻotish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;

respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va gʻoyalarni oʻrganishni tashkil etish;

ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;

atrof muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga oʻrgatish;

bolalarni atrof muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muhitga nisbatan faol taʼsir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik taʼlim mazmuni: psixologik, pedagogik, shaxs faoliyatiga yoʻnaltirilgan omillarga tayanadi:

tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda boʻlish zaruriyatini anglab yetish;

oʻz faoliyatlarining ekologik oqibatlarini oldindan his eta olish;

tabiat bagʻrida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini his qila bilish;

atrof muhit bilan muloqotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;

tabiat bilan muloqotda boʻlganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Shunday qilib, bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi koʻnikmalarga ega boʻlishlari lozim:

-ekologik muammolarning paydo bo'lish sababini ilmiy-amaliy jihatdan aniqlay olish;

-tasodifan hosil bo'ladigan antropogen omillar holatini hamda uning salbiy oqibatlarini [anglash va undan himoyalani](#)sh;

-tabiat zaxiralaridan foydalanishga oid amaliy, aniq ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish;

-ekologiyaga oid oddiy bitiruv malakaviy ish ishlarini o'tkaza olish, olingan natijalarni tahlil etib, xulosa chiqarish;

-ekologiyaga oid tajribalar olib borish;

-mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, tahlil etish va bartaraf qilishda faollik ko'rsata olish.

Ekologiya o'z mazmuniga ko'ra insoniyatning tabiat obyektlari bilan bo'ladigan barcha xilma-xil aloqalari mohiyatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, endilikda shahar, ishlab chiqarish, texnika, qishloq xo'jaligi, suv havzalari, o'simliklar, hayvonot olami, inson, mahalla ekologiyasi kabi tushunchalar mavjud. Ekologik tushunchalarni ekologiya fani o'z ichiga qamrab oladi. Bolalarga yoshiga xos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak.

Masalan, o'simlikni yorug'likka, suvga, issiqlikka bo'lgan ehtiyoji, bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi shart, chunki ularga o'lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish lozim.

**Xulosa.** Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik printsipligiga amal qilinadi, beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi shart. Masalan, erta baxorda kunlar isiydi, kunlar isiganligi sababli daraxtlar kurtak chiqara boshlaydi, osmon ko'm-ko'k tus oldi, biz endi bog'cha yer maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin. Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo'ladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. *O'zbekiston*

2.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli farmoni

3.Sh.A.Sodiqova, M. A. Rasulxojayeva Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.T.: Fan va texnologiya 2013.y.

4.Jabborova Tabiat bilan tanishtirish metodikasi 2006

5.Jabborova Tabiat bilan tanishtirish metodikasi 2002

6.O. Hasanboyeva, X. Jabborova, Z. Nodirova tabiat bilan tanishtirish metodikasi toshkent — 2016

7.X.J.Jabborova maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. Toshkent – 2009

8.Ekologicheskoe-vospitanie-v-detskom-sadu-srednyaya-gruppa-provedenie Lex.uz

9.F.Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, M.Azamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013

10.DJanpeisova G.E., Rasulxo‘jayeva M.A Tabiat bilan tanishtirish T.: Innovatsiya Ziyo, 2020.-320 b.